



## Korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

**(2019-yil 1-oktyabr holatiga)**

Ro'yxatdan  
o'tgan

**84,0 ming.**

2019-yilning 1-oktyabr holatiga 84,0 mingta korxonalar va tashkilotlar ro'yxatdan o'tgan bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 18,0 foizga o'sgan.

Faoliyat  
ko'rsatayotgan

**80,9 ming.**

Natijada, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 13,6 mingta (16,8 %) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 80,9 mingtani tashkil etgan.

Yangi tashkil  
etilganlar

**15,0 ming.**


2019-yilning yanvar-sentyabr oylarida Toshkent shahrida 15,0 mingtaga yaqin korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 5,6 mingtaga ko'pdir.

Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiriq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

# Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)


(2019-yil 1-oktyabr holatiga)



2019-yilning 1-oktyabr holatiga 84,0 mingta korxonalar va tashkilotlar ro'yxatdan o'tgan bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 18,0 foizga o'sgan, iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jamiga nisbatan 24,2 % - savdo, 18,1 % - sanoat, 8,0 % - qurilish, 7,3 % - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 4,0 % - tashish va saqlash, 3,8 % - axborot va aloqa, 1,8 % - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar, 1,0 % - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi hamda 31,8 % - boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

# Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda


(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha (20327 ta) savdo, (15196 ta) sanoat, (6688 ta) qurilish, (6104 ta) yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, (3400 ta) tashish va saqlash, (3207 ta) axborot va aloqa, (1537 ta) sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar, (840 ta) qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi va (26773 ta) boshqa faoliyat turlariga to'g'ri kelmoqda.

# Faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxslar


(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 80,9 mingtani tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 13,6 mingta (16,8 %) ga o'sgan.

## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar ulushi, %


(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Savdo




Sanoat




Qurilish




Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar




Tashish va saqlash



Axborot va aloqa




Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish



Boshqa turlari

# Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni tumanlar kesimida, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Tumanlar kesimida, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni eng ko'p Yunusobod (10656 ta), Chilonzor (10367 ta), Mirzo Ulug'bek (9166 ta), Olmazor (8570 ta), Shayxontohur (7817 ta), Uchtepa (7362 ta), Yakkasaroy (7323 ta) va Mirobod tumanlar (6873 ta) hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha Yashnobod (6077 ta), Sirg'ali (4846 ta) hamda Bektemir (1912 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.

# Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



2019-yil yanvar-sentyabr oylarida 15022 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2018-yilning shu davriga nisbatan 5602 taga ko'pdir.



Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi



Savdo

41,5 %



Sanoat

15,5 %



Qurilish

9,1 %



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar

6,3 %



Tashish va saqlash

3,3 %



Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi

1,0 %



Axborot va aloqa

3,4 %



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish

1,3 %



Boshqa turlari

18,6 %



Yangi tashkil etilgan korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimida, eng ko'p savdo (6229 ta), sanoat (2323 ta), qurilish (1366 ta), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (942 ta) sohalarida yangi tashkil etilgan. Eng kam esa tashish va saqlash (494 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish (201 ta), hamda qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi (157 ta) faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelgan.

# Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Savdo



6229

Tashish va saqlash




494

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar



942

Qurilish



1366

Sanoat



2323

Axborot va aloqa



508

Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish



201

Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi



157


Boshqa turlari



2802


# Tumanlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy qismi Uchtepa (1937 ta), Chilonzor (1878 ta), Yunusobod (1774 ta), Olmazor (1752 ta), Mirzo Ulug'bek (1602 ta), Shayxontohur (1382 ta) va Mirobod (1142 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha, Yashnobod (1119 ta), Yakkasaroy (1043 ta), Sergali (891 ta) hamda Bektemir (502 ta) tumanlarida korxonalar va tashkilotlarni tashkil etish ko'rsatkichi past darajani aks ettirgan.

**2017-2019-yillarning  
yanvar-sentyabr oylarida  
yangi tashkil etilgan  
korxonalar va tashkilotlar  
soni**



Korxonalar sonining o'sishi, birlikda



# TIJORAT KORXONALARI

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)  
(2019-yil 1-oktyabr holatiga)


Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalar va tashkilotlar soni 72,0 mingtani tashkil qildi

Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni, birlikda


Mas'uliyati cheklangan jamiyati



Xususiy korxonalar




Oilaviy korxonalar




Unitar korxonalar



Aksiyadorlik jamiyati



Boshqalar



## Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar


2019-yil 1 oktyabr holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 5778 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 1384 taga yoki 23,9 % ga o'sgan. Ushbu korxonalarining asosiy qismi Rossiya Federatsiyasi, Turkiya Respublikasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Qozog'iston Respublikasi va Koreya Respublikasi hissalariga to'g'ri keladi.

(1-oktyabr holatiga)

Faoliyat ko'rsatayotgan  
xorijiy sarmoya ishtirokidagi  
korxonalar soni.




O'tgan yilning mos davriga nisbatan  
o'sish sur'ati %




Asosiy qismi Rossiya Federatsiyasi, Turkiya Respublikasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Qozog'iston Respublikasi va Koreya Respublikasi hissalariga to'g'ri keladi.


## Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning davlatlar kesimida soni, birlikda




## Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarni yillar kesimida soni, birlikda



Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining 2524 tasi qo'shma, 3254 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keladi.




Tumanlar kesimida, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni, birlikda




Tumanlar kesimida, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining asosiy qismi Mirobod tumanida 973 ta (jamidagi ulushi 16,8 %), Yakkasaroy tumani 914 ta (15,8 %), Yunusobod tumanida 760 tani (13,2 %), Mirzo Ulug'bek tumanida 710 ta (12,3 %), Chilonzor tumanida 670 ta (11,6 %), Yashnobod tumanida 475 ta (8,2 %) va Shayxontohur tumanida 399 ta (6,9 %) tashkil etilgan. Eng kam xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar Olmazor tumanida 316 ta (5,5%), Sirg'ali tumanida 233 ta (4,0 %), Uchtepa 184 ta (3,2 %) hamda Bektemir tumanlarida 144 ta (2,5 %) tashkil etgan.

## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni, birlikda



Ko'rinib turibdiki faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turiga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulush esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish hamda qishloq, o'rmon va baliq xo'jaliklariga to'g'ri keladi.


## Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar



2019-yilning yanvar-sentyabr oylarida xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalarining soni 1350 tani tashkil etgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 347 taga ko'paygan.

Xitoy Xalq Respublikasi rezidentlari kapitali ishtirokida - 222 ta, Turkiya Respublikasi – 214 ta, Rossiya Federatsiyasi – 199 ta, Qozog'iston Respublikasi – 167 ta va Koreya Respublikasi – 93 ta korxonalar yangi tashkil etilgan.

# Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda




Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan savdoda 513 ta, sanoatda 238 ta, qurilishda 182 ta va 417 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

# Kichik korxonalar va mikrofirmalar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarni yillar kesimida soni, birlikda



2019-yil 1 oktyabr holatiga respublikamizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni 71,2 mingtani tashkil etgan. Bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 18,5% ga oshgan.

2019-yil yanvar-sentyabr oylarida 14,4 mingdan ziyod kichik korxonalar va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan solishtirilganda 38,5% ko'proqdir.



# Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning tumanlar kesimida jamiyatdagi ulushi 1-oktyabr holatiga

## • Eng katta ulushi

## • Eng kichik ulushi



•Yunusobod tumani  
13,1 %



•Yakkasaroy tumani  
9,2 %



•Chilonzor tumani  
12,8 %



•Mirobod tumani  
8,1 %



•Mirzo Ulug'bek tumani  
11,1 %



•Yashnobod tumani  
7,4 %



•Olmazor tumani  
10,9 %



•Sirg'ali tumani  
6,1 %



•Shayxontohur tumani  
9,4 %




•Bektemir tumani  
2,5 %



•Uchtepa tumani  
9,4 %

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 71,2 mingta kichik korxonalar va mikrofirmalarning 19,5 mingta (27,3 %) – savdo, 14,6 mingta (20,6 %) - sanoat, 6,4 mingta (9,0 %) - qurilish, 5,7 mingta (8,0 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasi, 3,2 mingta (4,6 %) - tashish va saqlash, 3,0 mingta (4,2 %) - axborot va aloqa sohasi, 1,2 mingta (1,7 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 0,8 mingta (1,1 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, shuningdek, 16,8 mingtasi (23,6 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi.

## Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi %



# Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, %

Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi

1,1




Sanoat

16,0



Qurilish

9,4




Savdo

42,9



Tashish va saqlash

3,4



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar

6,5




Axborot va aloqa

3,5




Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish

1,3




Boshqa turlari

15,9



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'p savdo 6224 ta, sanoat 2316 ta, qurilish 1364 ta va yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 941 ta tashkil etilgan. Eng kam esa tashish va saqlashda 492 ta, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatishda 194 ta hamda qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi 156 ta tashkil etilgan.


## Tumanlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni, birlikda




Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Uchtepa (1902 ta), Chilonzor (1811 ta), Yunusobod (1701 ta) va Olmazor (1699 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Eng kam Yakkasaroy (991 ta), Sirg'ali (858 ta) hamda Bektemir (498 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

# Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda

(1-oktyabr holatiga )




● Ro'yxatdan o'tgan ● Faoliyat ko'rsatayotgan  
● Yangi tashkil etilgan




● Ro'yxatdan o'tgan ● Faoliyat ko'rsatayotgan  
● Yangi tashkil etilgan

## Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarni tumanlar kesimida soni, birlikda

2019-yil 1-oktyabr holatiga



## Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 41,6% yoki 1132 tasi sanoat, 18,9 % yoki 515 tasi savdo, 17,9 % yoki 488 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 2,7% yoki 74 tasi qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligi, 1,5 % yoki 40 tasi qurilish, 1,0 % yoki 27 tasi tashish va saqlash, 0,9 % yoki 24 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 1,6 % yoki 43 tasi axborot va aloqa hamda 13,9 % yoki 378 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

**Toshkent shahar  
statistika boshqarmasi  
Statistik registrlarni  
yuritish bo'limi boshlig'i  
Rashidov Aziz  
Tel.:71-230-88-31**